

ISLOM BUXGALTERIYA HISOBINING MAZMUN-MOHİYATI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

PhD, dots. **Batirova Nilufar**

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

ORCID: 0000-0001-7542-0825

n.batirova@iiu.uz

Annotatsiya. Maqolada islom buxgalteriya hisobining mazmuni yoritilgan. Islom buxgalteriya hisobini an'anaviy buxgalteriya hisobi bilan solishtirish orqali uning mohiyatini kengroq ochib berishga harakat qilingan. Islom buxgalteriyasiga oid turli olimlar tomonidan berilgan ta'riflar keltirilgan va tahlil qilingan. Islom buxgalteriyasini to'liq tushunish maqsadida islom moliyaviy tizimining asosiy xususiyatlariga ham to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, buxgalteriya hisobotidagi mavjud hisobotlar hamda unga qo'shimcha tarzda islom buxgalteriyasida qo'shilgan hisobot shakllari yoritilgan. Buxgalteriya balansi hamda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlardagi qo'shimcha bandlarning yuzaga kelish sabablari, ushbu bandlarda yoritiluvchi balans moddalari hamda foyda va zararga tegishli bo'lgan moliyaviy operatsiyalarning tavsifi berilgan. Xulosa qismida, islom buxgalteriyasi va an'anaviy buxgalteriya vazifalaridagi farqli jihatlar ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, moliya tizimi, moliyaviy hisob, islom moliya instituti, islom buxgalteriyasi, moliyaviy hisob va hisobot, balans, moliyaviy natija, islom iqtisodiy tizimi.

СУЩНОСТЬ ИСЛАМСКОГО УЧЕТА И ЕГО СПЕЦИФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

PhD, доц. **Батирова Нилуфар**

Международная академия исламоведения Узбекистана

Аннотация. В статье рассматривается содержание исламского учета. Предпринята попытка более широко раскрыть его сущность путем сравнения исламского учета с традиционным. Представлены и проанализированы тарифы, предложенные различными учеными по исламскому учету. Для полного понимания исламского учета также обсуждаются основные особенности исламской финансовой системы. Также рассматриваются существующие отчеты в бухгалтерской отчетности и дополнительные формы отчетности, добавленные к ней в исламском учете. Приведены причины появления дополнительных статей в балансе и финансовой отчетности, статьи баланса, охватываемые этими статьями, и описание финансовых операций, связанных с прибылью и убытками. В заключение выделены различия в задачах исламского учета от традиционного учета.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, финансовая система, финансовый учет, исламское финансовое учреждение, исламский учет, финансовый учет и отчетность, баланс, финансовый результат, исламская экономическая система.

THE ESSENCE OF ISLAMIC ACCOUNTING AND ITS SPECIFIC ASPECTS

PhD, assoc. prof. **Batirova Nilufar**
International Islamic Academy of Uzbekistan

Abstract. *This article examines the content of Islamic accounting. An attempt is made to reveal its essence more broadly by comparing Islamic accounting with traditional accounting. The rates proposed by various scholars on Islamic accounting are presented and analyzed. For a complete understanding of Islamic accounting, the main features of the Islamic financial system are also discussed. Existing reports in financial statements and additional reporting forms added to them in Islamic accounting are also considered. The reasons for the appearance of additional items in the balance sheet and financial statements, the balance sheet items covered by these items, and a description of the financial transactions related to profits and losses are provided. In conclusion, the differences between the objectives of Islamic accounting and traditional accounting are highlighted.*

Keywords: *accounting, financial system, financial accounting, Islamic financial institution, Islamic accounting, financial accounting and reporting, balance sheet, financial result, Islamic economic system.*

Kirish.

An'anaviy moliyaviy hisob bu moliyaviy hisob ma'lumotlaridan foydalanuvchilarga tahlillar asosida kerakli qarorlarni qabul qilishi uchun iqtisodiy hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlash, qayd qilish, tasniflash, talqin qilish va yetkazish jarayoni bo'lgani kabi, islom iqtisodiyotida moliyaviy hisob ham xuddi an'anaviy hisob kabi ma'lumotlarni taqdim etish bilan shug'ullanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, islom moliyaviy hisobi ham, an'anaviy hisob ham bank va tashkilotlarning moliyaviy natijasi va holati haqida ma'lumot beradi. Ma'lumotlarni taqdim qilish maqsadi, ularni qaysi turda ekanligi, o'lchash, baholash hamda qayd qilish, kimga yo'naltirilganligi kabi jihatlaridagina ular orasida farq ko'rish mumkin.

Moliyaviy hisob foydalanuvchilaridan korxona va tashkilotlarning investitsiyalarini sotib olish, sotish yoki ushlab turish bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilish jarayonida islom iqtisodiyoti tamoyillariga rioya qilishni ta'minlash zarurati - islom moliyaviy hisobining ahamiyatini oshiradi (Shahariman, 2024). An'anaviy moliyaviy hisob bo'lib o'tgan iqtisodiy hodisa va jarayonlarni to'g'ri qayd etishga mo'ljallangan bo'lsa, islom moliyaviy hisobi shu bilan bir qatorda zakot, ehson kabi ijtimoiy iqtisodiy hodisalar bo'yicha ham hisob ma'lumotlarini taqdim etishga qaratilgan. Islom moliyasi islom iqtisodiyoti tamoyillariga asoslanadi va bu Islom moliyaviy institutlari (IMI)ning moliyaviy hisobiga ta'sir qilib, ularning moliyaviy faoliyatini tartibga solishda islom iqtisodiyoti tamoyillari va qoidalariga murojaat qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

Moliyaviy hisob va hisobot amaliyotidagi o'zgarishlar o'zgaruvchan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy ehtiyojlar, shartlar va tizimlarga moslashib, rivojlandi. Tarixiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, qadimdan boshlab islom davlatlari ham ikki tomonlama moliyaviy hisob shaklini qo'llaydigan keng qamrovli hisob, hisobot va audit tizimini qabul qilgan (Aygul, 2024). Bunda moliyaviy hisob va hisobot amaliyotini rivojlantirish uchun keltirilgan asosiy sabablar sifatida davlat xazinasini, xususiylar tijorat operatsiyalari (savdo) va yillik sadaqa (zakot) to'lash operatsiyalarini keltirish mumkin. Qur'onda yozilganidek, musulmonlar o'z majburiyatlarini bajarishlari, hisobdor bo'lishlari, agar shartnoma tuzgan tomonlar o'rtasida qarz bitimi yuzaga kelsa, yozma ravishda qayd etishlari, to'g'ri o'lchovlarga rioya qilishlari va firibgarlik qilmasliklari belgilab qo'yilgan. Javobgarlik hissi islomiy tijorat faoliyatining asosi hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiyotda biznesning islom iqtisodiyoti talablariga moslashishi islom nuqtai nazaridan buxgalteriya hisobining rivojlanishiga olib keldi. Islom iqtisodiyoti nuqtai nazaridan hisob-kitob qilish bu ma'lumotlarning islom iqtisodiyoti qonunlariga muvofiq to'liq

oshkor etilishini va resurslardan foydalanishda ishtirok etuvchi tomonlarning ijtimoiy javobgarligini talab qilganligi bois, bu soha bir qancha yondashuvlar asosida rivojlanib keldi.

Adabiyotlar sharhi.

Islom moliya institutlari va kompaniyalar har bir hisobot davri oxirida turli maqsadlar uchun moliyaviy hisobotlarni tuzadilar. An'anaviy buxgalteriyadan farqli ravishda, bu maqsadlardan biri, zakotni hisoblash va to'lash tartibidir. Korxonalar tomonidan zakotni hisoblash islom iqtisodiyoti qoidalarini Islom buxgalteriya hisobiga ta'sir qilishiga misol bo'ladi. Demak, islom iqtisodiyoti tamoyillari buxgalterlar tomonidan hisobot berishda qo'llaniladigan standartlarni, nima to'g'ri va adolatli ekanligini va pirovardida yaxshi korporativ boshqaruv va barqarorlik tamoyillari qanday ekanligini belgilaydi.

Umumiy ma'noda, *Napiyerning* fikricha, buxgalteriya hisobi – bu tashkilotlarda ro'y berayotgan iqtisodiy hodisalarni qayd etish, ro'yxatga olingan ma'lumotlarni tasniflash va ulardan ko'chirmalarni moliyaviy hisobot shakllarida manfaatdor tomonlarga yetkazish jarayonidir (Napier, 2023). Xolmirzayev esa, buni qisqagina bu hisobni biznes va tadbirkorlik faoliyatini tahlil qilish tili deb ta'riflaydi (Xolmirzaev, 2021). Shu o'rinda, bu tilni tushunish, moliyaviy hisobotlarni tuzuvchilar tomonidan islomiy tamoyillarga amal qilinayotganligini anglash muhim jihatlardandir.

Bugungi kunda yirik banklarda islom bankchiligi va moliyasi rivojlanib bormoqda. Islom buxgalteriyasining ma'nosini to'liq tushunib olish uchun uni "an'anaviy" buxgalteriya ta'rifi bilan solishtirsak maqsadga muvofiq bo'ladi. *Kimmel* an'anaviy hisobni foydalanuvchilarga oqilona qarorlar qabul qilish imkonini beradigan iqtisodiy hodisalarni identifikatsiyalash (aniqlash), qayd etish, tasniflash va izohlash usuli deb biladi (Kimmel, 2020). Bu ta'tif, islom va an'anaviy buxgalteriyaning har ikkisi ham ma'lumot berishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Bizning fikrimizcha, an'anaviy moliyaviy hisob ma'lumotlari foydalanuvchilarga asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi, ularning asosiy maqsadi bozorda axborot samaradorligini ta'minlash orqali cheklangan resurslarni optimal taqsimlashdir. Bunga foydalanuvchi o'z investitsiyalari (kapitali) bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilish, sotib olish, sotish yoki ushlab turish orqali erishadi. Islom moliya hisobi esa yuqoridagi maqsadlar bilan bir qatorda, tashkilotlar o'z faoliyatlarida islom iqtisodiyoti yoki islom qonuni tamoyillariga rioya qilishlarini ta'minlashga va ushbu tashkilotning ijtimoiy maqsadlariga erishayotganligini baholashga xizmat qiladi.

Amaliy tajribalarning ko'rsatishicha, buxgalteriya hisobi subyektlarining moliyaviy holati va faoliyati natijalari bo'yicha xulosa chiqarish uchun uch xil turdagi moliyaviy hisobot: buxgalteriya balansi, foyda va zarar to'g'risidagi hisobot hamda davriy natijalar haqida ma'lumot beruvchi pul oqimi to'g'risidagi hisobotlar yetarli hisoblanadi. Islom buxgalteriya hisobi esa bu hisobotlarga qo'shimcha tarzda biznes yurituvchi tashkilotlarning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarini yoritish maqsadida boshqa hisobot shakllarini ham talab etadi. Shunga muvofiq, S. Ibrahim **islom buxgalteriyasini**-islom moliya muassasalarining islom iqtisodiyoti qoidalari doirasida moliyaviy va ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga qay darajada erishayotgani haqidagi ma'lumotlarni qayd etish, tasniflash va yetkazish jarayoni deb ta'riflaydi (Ibrahim, 2005).

"Islomiy buxgalteriya" atamasining buxgalteriya hisobiga nisbatan qo'llanilishi turli talqinlarga ega. Masalan, *Velayutham* islom buxgalteriya hisobi aholining ko'pchiligi musulmon bo'lgan mamlakatlardagi hisobni anglatadi deb hisoblaydi (Velayutham, 2014). Bu talqinga ko'ra, islom hisobi Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Afrikaning janubi-sharqiy qismi kabi arab davlatlarini buxgalteriya hisobini qamrab olishi kerak. Ammo, *Napierning* fikricha xozirgi kunda islom moliya muassasalarini ko'pgina davlatlarda uchratishimiz mumkin (Napier, 2009). Bu esa bu hisobning geografik xaritasini kengaytiradi.

Islomiy buxgalteriya hisobining aksariyat tamoyillari diniy va axloqiy normalarga asoslangan bo'lib, aynan axloqiy asoslarining universalligi tufayli uning ba'zi qoidalari butun

dunyoda mashhurlikka erishmoqda (Rahman, 2003). Garchi umumiy maqsadlarda musulmon va boshqa davlatlardagi buxgalteriya hisobining qayd etilishida o'xshashlik bo'lsada, buxgalteriya hisobi tartib-qoidalarining batafsil qo'llanilishida farqlar mavjuddir (Askary, 2006). Har qanday o'lchov va hisobot tizimi o'z tabiatiga ko'ra odamlar tomonidan biron bir maqsadlarni amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan. Islom iqtisodiyotining ham asosiy maqsadi shariatga mos keladigan muayyan axloqiy tamoyillarga amal qilish bo'lib, islomiy buxgalteriya ham ushbu maqsadlarni o'zida qamrab oladi (Rahman, 2003).

R. Haniffa islom buxgalteriya hisobini - tashkilotning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlari yo'lida islom iqtisodiyoti talablari doirasida doimiy ravishda ishlashini ta'minlaydigan "buxgalteriya hisobi jarayoni" deb ta'riflaydi (Haniffa, 2002). **U an'anaviy buxgalteriya hisobidan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega.** Hisob tamoyillari islom iqtisodiyoti qoidalariga asoslanadi. Bu tamoyillar mukammal, doimiy va keng qamrovlidir. Ushbu hisob kengroq, u ma'naviy jihatlarni ham nazarda tutadi, uni butun hayotga tatbiq etish mumkin.

Islom moliyaviy hisobi makroiqtisodiy jihatdan e'tiborli bo'lsa, an'anaviy buxgalteriya hisobi mikroiktisodiy darajadagi fan sifatida baholanadi, chunki u korxonalar nuqtai nazardan faoliyatni tahlil qiladi. Islom moliyaviy hisobi esa jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan zakot, nafaqa, meros ilmlarini ham qamrab oladi. Jamiyat oldida turgan vazifalardan individual burchga o'tish asosi iqtisodiy va ijtimoiy birlik o'rtasidagi alohida chiziqni tashkil qiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Islom buxgalteriyasini yaxshiroq tushunish uchun Islom iqtisodiy tizimining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab olish maqsadga muvofiq xisoblanadi.

Ba'zi manbalarda **Islomiy iqtisodiy tizimning asosiy xususiyatlari** quyidagicha ta'riflanadi:

- Har bir inson o'z iqtisodiy farovonligini ta'minlash huquqiga ega bo'lsa-da, Islom iqtisodiy faoliyati bilan shug'ullanishda halol va haromni aniq ajratish lozim (Kader, 2021). Umuman olganda, islom axloqiy yoki ijtimoiy zarar keltiradigan iqtisodiy faoliyatning barcha turlarini taqiqlaydi. Islomda axloqiy yoki ijtimoiy jihatdan zararli deb hisoblangan narsalarga oid qarashlar esa an'anaviy tizimdan farq qiladi.

- Islomda qonuniy yo'l bilan orttirilgan boylikka egalik e'tirof etilgan bo'lsa-da, inson o'z boyligini oqilona sarflashi, uni to'plamasligi, bekor qo'ymasligi yoki isrof qilmasligi shart.

- Garchi bir kishi ortiqcha boylikni saqlab turishi mumkin bo'lsa-da, Islom butun jamiyat farovonligi uchun bu ortiqcha mablag'ning chegarasini kamaytirishga intiladi.

- Islom o'zining meros qonuni orqali boylikning bir necha kam sonli kishilar qo'lida to'planishining butun jamiyatga zarar keltirmasligiga intiladi.

- U ijtimoiy adolatni maqsad qilib qo'yadi, chunki u nafaqat jamoaviy zarar yetkazadigan, balki individual ravishda o'zi uchun halokatli bo'lishi mumkin bo'lgan tadbirkorlikni ham cheklashga harakat qiladi.

Islomning adolat tushunchasiga muvofiq, islom iqtisodiyoti maqsadlarini amalga oshirish uchun insonlar ixtiyoridagi barcha resurslardan foydalanish kerakligi ta'kidlanadi (Chapra, 1992). Chapra **Islom iqtisodiy tizimining to'rtta maqsadini** ajratib ko'rsatadi:

- Ehtiyojlarni qondirish: barcha shaxslarning asosiy ehtiyojlari qondirilishi va har bir inson insoniy qadriyatlarga mos sifatli turmush darajasiga ega bo'lishi.

- Munosib daromad manbayi: Ehtiyojni qondirish insonning sa'y-harakatlari orqali bo'lishi kerakligini anglatadi. Imkoniyati cheklangan yoki tirikchilik qila olmagan taqdirda, musulmon jamiyati o'z ehtiyojlarini zakot va xayriya vaqflari kabi islomiy ijtimoiy-iqtisodiy institutlar orqali qondirishi mumkin.

- Daromad va boylikni adolatli taqsimlash: Daromad va boylikdagi tengsizlikka mahorat, tashabbus, harakat va tavakkalchilikka mutanosib ravishda yo'l qo'yish mumkin bo'lsa-da, buzg'unchi tengsizliklar islom ta'limotiga to'g'ri kelmaydi. Bunga erishish uchun zakotni joriy etish va iste'molchi xatti-harakatlarini islomiy ko'rsatmalarga mos keladigan qilib o'zgartirish

zarur.

– O'sish va barqarorlik: O'sish va barqarorlik bandlikni saqlab qolish va boylikni adolatli taqsimlash maqsadini ta'minlash uchun zarurdir.

Islom iqtisodiyotida tadbirkorlik sohasida, garchi zamonaviy korporatsiya tushunchasi mavjud bo'lmagan bo'lsa-da, tavakkalchilikka hamda foyda va zararni bo'lishishga asoslangan qo'shma banklar, ayniqsa, mudoraba va sheriklik – mushoraka asosida biznesni amalga oshirishga alohida ahamiyat ajratadi. Islom iqtisodiy tizim tarkibi keng qamrovli islom iqtisodiy va moliyaviy tizimini rivojlantirish strategiyasining qismlari sifatida islom iqtisodiyoti doirasida faoliyat yurituvchi tashkilotlarni qamrab oladi. Islom moliyaviy hisobi bu turdagi tashkilotlarga o'z faoliyatlarini belgilangan tartibda islom iqtisodiyoti qoidalari asosida yuritishlari uchun kerak hisoblanadi.

Shu kunga qadar moliyaviy hisob va hisobot amaliyotidagi o'zgarishlar ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy ehtiyojlar, shartlar va tizimlarga moslashgan holda rivojlanmoqda.

Qur'onning "Mudoyana" oyatida (Baqara surasi 282-oyat) musulmonlar o'z majburiyatlarini bajarishlari, hisobdor bo'lishlari, agar shartnoma tuzgan tomonlar o'rtasida qarz oldi berdisi yuzaga kelsa, yozma ravishda qayd etishlari, to'g'ri o'lchovlarga rioya qilishlari va firibgarlikka yo'l qo'ymasliklari qayd etilgan. Ushbu oyat moliyaviy operatsiyalarni qayd etish zaruratini ta'kidlaydi.

IMlarning moliyaviy hisob va hisobot amaliyotlari islom moliyasidagi turli tartibga solish yondashuvlari, turli bank modellari, shuningdek, islomiy moliyaviy mahsulotlar va mexanizmlar bo'yicha islom iqtisodiyoti talqinlarining o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan (Mahar, 2024). Bu o'zgarishlar 1980-1990-yillarda IMI uchun moliyaviy hisobot asoslari, audit va boshqaruv standartlarini ishlab chiqish uchun moliyaviy hisob standartlarini belgilash kengashi tashkil etilishiga olib keldi.

Islom moliya institutlarining moliyaviy hisobotlari islom iqtisodiyoti talablarini hisobga olgan holda tuziladi. Daromadning tabiati, shuningdek, xarajatlar islom iqtisodiyoti tamoyillariga muvofiq bo'lishi kerak. Hisobotda faqat qonuniy daromadlar va xarajatlar qayd qilinadi va taqdim etiladi.

Bitimning qat'iyligini aks ettiruvchi tan olish mezonlari islom moliyasida alohida e'tiborni tortadi. Islomiy bitimlar sifatida qayd etilgan shartnomalarning turli shakllari moliyaviy hisobotda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan yetkazib berish va to'lovning aniqligi nuqtai nazaridan qanday talablarga amal qilish zarurligini belgilab beradi.

Islom moliya institutlari uchun moliyaviy hisobot standartlarini ishlab chiqishda yuqoridagi talablarni hisobga olgan holda islom iqtisodiyoti talablari asosida alohida moliyaviy hisobot tizimi ishlab chiqilgan. Ya'ni, islom banklarining moliyaviy hisobotlari tabiatiga xos xususiyat islom iqtisodiyoti tamoyillarining roli va ta'siridir. Bular islom iqtisodiyotiga mos keladigan moliyaviy hisob tushunchalari, tamoyillari va siyosatlarini tanlash va qo'llashdir.

Islom iqtisodiyotida moliyaviy hisob huquq va majburiyatlarning adolatli taqdim etilishini ta'minlaydigan operatsiyalarni tan olish, o'lchash va qayd etish (shuningdek, taqdim etish va yoritish) bilan shug'ullanadi (Baydoun, 2018). Bu huquq va majburiyatlar islomiy moliyaviy shartnomalarda belgilangan islom iqtisodiyoti tamoyillariga asoslanadi. Bundan tashqari, shartnomalar islom iqtisodiyoti tamoyillariga zid kelmasligi uchun aniq o'lchanishi va to'liq oshkoralik xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Islom banklarining moliyaviy holati va natijalari to'g'risida hisobot investorlar va manfaatdor tomonlarga qonuniy va ruxsat etilgan (halol) faoliyatni taqiqlangan (harom) operatsiyadan, sahif operatsiyalarni botil operatsiyalardan ajratishga imkon berishi lozim. Moliyaviy hisobotda nafaqat bankning moliyaviy ahvoli, faoliyati, shuningdek, faoliyatining qonuniyligi va islom iqtisodiyoti tamoyillariga javob berishi, shartnomalarning haqiqiyligini ham aks ettirilishi lozim.

Islom buxgalteriya hisobida an'anaviy buxgalteriyada kabi turli manfaatdor tomonlar mavjud bo'lib, ular o'z investitsiyalariga nisbatan to'g'ri qaror qabul qilish uchun ma'lumot to'playdilar (Velayutham, 2014). Tashkilotlar kichik bo'lsa, manfaatdor tomonlar soni ham oz

bo'ladi, shuning uchun talab qilinadigan ma'lumotlar miqdori nisbatan kichik bo'ladi. Tashkilotlar hajmi oshgani sayin, manfaatdor tomonlar soni ortadi va ma'lumotlarga bo'lgan talab ham ortadi. Ijtimoiy javobgarlik va to'liq yoritish tamoyillari bunday tashkilotlardan yanada kengroq hisobotlarni taqdim etishni talab qiladi.

Islom moliya muassasalari o'zining barcha operatsiyalarida, investitsiya va moliyalashtirish faoliyatida islom iqtisodiyoti tamoyillariga amal qilishi shart. Ya'ni, islom iqtisodiyoti nuqtai nazaridan pul-ayirboshlash va moliyaviy majburiyatlarni bajarish vositasidir. Islom iqtisodiyoti pulni tovar sifatida tan olmaydi. Demak, islom banklari mablag'lar qiymati sifatida foizlarni to'lay olmaydi yoki ololmaydi yoki kreditlardan investitsiya vositasi sifatida foydalana olmaydi. Islom banklarining asosiy xizmatlari qatoriga: investitsiyalarni boshqarish, moliyaviy va ijtimoiy xizmatlar kiradi.


Islom moliya muassasalari an'anaviy moliya muassasalar moliyaviy hisobot turlarini alohida ajratib o'tadi. Ularga qo'shimcha ravishda, AAOIFI islom banklariga xos bo'lgan yana uchta moliyaviy hisobotni tavsiya qiladi (Ullah, 2013). Bular aynan islom iqtisodiyotiga xos bo'lgan hisobot shakllaridir, ya'ni:

1. Cheklangan investitsiyalar bo'yicha o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot, bu islom banki tomonidan boshqa shaxslar manfaati uchun Mudoraba shartnomasi yoki agentlik shartnomasi asosida boshqariladigan cheklangan investitsiyalardagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi moliyaviy hisobot.

2. Zakot va xayriya jamg'armasidagi mablag'larning manbalari va ulardan foydalanish to'g'risidagi hisobot.

3. Qarz fondidagi mablag'larning manbalari va ulardan foydalanish to'g'risidagi hisobot.

Buxgalteriya balansi hamda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlar an'anaviy va islom buxgalteriyasida quyidagi jihatlar bilan farqlanadi.



1-rasm. Buxgalteriya balansidagi o'xshash va farqli jihatlar

Cheklanmagan investitsiya hisobvaraqlari islom banki tomonidan jismoniy va boshqa shaxslardan olingan mablag'lardan cheklovlarisiz foydalanish va investitsiya qilish huquqiga ega bo'lishi, shu jumladan, islom bankining investitsiya qilingan mablag'larni evaziga o'z investitsiyalari bilan birlashtirish huquqiga ega bo'lishi asosida olingan mablag'lardir. Islom banki bilan cheklanmagan investitsiya hisobvaraqlari egalari va ularning ekvivalenti o'rtasidagi munosabatlar cheklanmagan Mudoraba shartnomasiga asoslanadi. Demak, cheklanmagan investitsiya hisobvaraqlari islom banki moliyaviy balansining elementlaridan biri hisoblanadi. Bu islom bankiga o'z aktivlarini foydalanish yoki tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan boshqa aktivlar bilan birlashtirishga ruxsat beruvchi islom iqtisodiyoti qoidalariga mos keladi.

Cheklanmagan investitsiya hisobvaraqlari egalarining kapitali va ularning ekvivalenti deganda, moliyaviy ahvol to'g'risidagi hisobot taqdim etilgan sanada islom banki tomonidan hisobvaraq egalaridan dastlab olingan mablag'lar va ular natijasida foyda (zarar)dagi qo'shilgan ulushining yig'indisi tushuniladi va bunda boshqa turdagi hisobvaraqlarga pul o'tkazish uchun yechib olingan xususiy kapitaldagi ulushlar chegiriladi.


Cheklanmagan ishtirokchi obligatsiyalar va shunga o'xshash xarakterdagi boshqa qimmatli qog'oz egasi bo'lganda, bu hisob cheklanmagan investitsiya hisoblariga ekvivalentdir. Cheklanmagan obligatsiyalar nominal miqdorga ega bo'lib, Islom banki tomonidan ushbu mablag'lardan o'z investitsiya faoliyatini moliyalashtirish uchun foydalanishi sharti bilan ularga obuna bo'lgan shaxslar nomiga chiqariladi. Foyda ushbu obligatsiya egalari va islom banki o'rtasida, har biri qo'ygan mablag'larning nisbiy miqdoridan kelib chiqib, bank o'z foyda ulushini mudorib sifatida olgandan keyin taqsimlanadi. Zarar Islom banki va ushbu obligatsiya egalari o'rtasida har bir investitsiya qilingan mablag'larning nisbiy miqdoridan kelib chiqqan holda taqsimlanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, cheklanmagan investitsiya hisobvaraqlari egalarining kapitali va ularning ekvivalenti moliyaviy hisobda majburiyat hisoblanmaydi. Chunki, islom banki ushbu kapitalning ma'lum qismi yo'qotilgan taqdirda hisobvaraq egalaridan olingan mablag'larning dastlabki miqdorini, agar yo'qotish beparvolik yoki shartnomani buzish natijasida bo'lmasa, qaytarish majburiyatiga ega emas. Xuddi shunday, cheklanmagan investitsiya hisobvaraqlari egalari kapitali va ularning ekvivalenti islom bankidagi mulkiy kapitalning bir qismi hisoblanmaydi, chunki bu hisobvaraq egalari va ularning ekvivalentlari bir xil egalik huquqlaridan, masalan, ovoz berish huquqidan, joriy va boshqa investitsion bo'lmagan hisobvaraqlar tomonidan taqdim etilgan mablag'larni investitsiya qilishdan olingan foydadan ulush olish huquqidan foydalanmaydi. Joriy hisobvaraqlar va boshqa investitsion bo'lmagan hisobvaraqlar investitsiya hisobvaraqlari egalarining kapitali yoki ularning ekvivalenti bilan emas, balki egalarining kapitali bilan kafolatlanadi. Bu "Foyda tavakkal qilgan kishigadir" degan qoidaga to'g'ri keladi.

Cheklanmagan investitsiya hisobvaraqlari egalarining kapitali va ularning ekvivalenti majburiyat ham kapital ham emas. Shu sababli ular balansning passiv qismida alohida tasniflanadi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot elementlari ham islom buxgalteriyasi va an'anaviy buxgalteriyada o'zaro o'xshashdir, faqat ba'zi qo'shimcha elementga farq qiladi (Hossain, 2012). Daromad, xarajat, foyda va zarar elementlari mantiqan bir xillikni tashkil etadi.

Hamma foyda va zararlar bir xil sabablarga ko'ra yuzaga kelmaydi. Ba'zi foyda va zararlar Islom banki va boshqa tashkilotlar o'rtasidagi savdo ayirboshlash natijasida yuzaga keladi, masalan, odatdagi biznes jarayonida sotish uchun sotib olingan asosiy vositalarni sotishdan olingan foyda yoki zarar. Boshqa foyda yoki zararlar o'zaro bog'liq bo'lmagan o'tkazmalar (bir tomonlama operatsiyalar), masalan, islom banki tomonidan olingan xayriyalar yoki markaziy bank tomonidan bankka nisbatan qo'llaniladigan jarimalar natijasida yuzaga keladi.



2-rasm. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda o'xshash va farqli jihatlari

Moliyaviy natijada bank va cheklanmagan investitsiya hisobvaraqlari egalari tomonidan birgalikda moliyalashtiriladigan investitsiya daromadlari, xarajatlar, foyda va zararlar alohida oshkor etilishi kerak.

Cheklanmagan investitsiya hisobvaraqlari va ularning ekvivalenti bo'yicha daromad

– bu hisobvaraqlar egalari Islom banki bilan birgalikdagi investitsiya operatsiyalarini moliyalashtirishda hisobot davri bo'yicha investitsiya foydalari va zararlaridan ajratilgan ulushdir. Cheklanmagan investitsiya hisobvaraqlari va ularning ekvivalenti bo'yicha daromad tashkilotning foydasi hisoblanmaydi. Aksincha, bu cheklanmagan investitsiya hisobvaraqlari egalari Islom banki bilan birgalikda amalga oshiriladigan investitsiya faoliyatidagi ishtirokidan kelib chiqadigan investitsiya foydalari va zararlarini taqsimlash hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Demak, **An'anaviy buxgalteriya hisobi** – foydalanuvchilarga oqilona qarorlar qabul qilish imkonini beradigan iqtisodiy hodisalarni identifikatsiyalash (aniqlash), qayd etish, tasniflash va izohlash usuli bo'lsa, **Islom buxgalteriya hisobi** – tashkilotning manfaatdor tomonlariga tegishli ma'lumotlarni (moliyaviy ma'lumotlar bilan cheklanib qolmasdan) taqdim etadigan "buxgalteriya hisobi jarayoni" dir, bu ularga tashkilotning islom iqtisodiyoti va qonunlari doirasida doimiy faoliyat yuritishi va ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarini amalga oshirishiga yordam beradi. Moliyaviy hisobotning maqsadi iqtisodiy qarorlar qabul qilishda foydalanuvchilarning keng doirasi uchun foydali bo'lgan bankning moliyaviy holati va faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishdan iborat. Islom buxgalteriyasi ushbu maqsadlarni tan olgan holda moliyaviy operatsiyalarni islom iqtisodiyoti tamoyillariga ham mosligini belgilaydi.

Islom moliyaviy hisobida ijtimoiy hisob o'lchovlari va atrof-muhit bilan bog'liq masalalar an'anaviy buxgalteriya hisobi talablariga qo'shimcha sifatida kiritilgan. Moliyaviy hisob hayotimizni barcha jabhalarida foydalaniladi. Oddiy turmushdagi holatlardan tortib murakkab moliyaviy operatsiyalar uchun ham hisob zarur hisoblanadi. Islom iqtisodiyotiga ko'ra bozor monopoliyadan holi, g'arardan uzoq, maysirdan holi bo'lmog'i lozim. Bunda mamlakatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy holatidan kelib chiqib raqobat sharoitlari orqali adolatli taklif va talabga qarab narxni aniqlashga qaratilgan bozor iqtisodiyoti shakllanishi lozim. Narxlarni boshqa qoidalarga ko'ra belgilashda buzilish holatlari yuzaga kelgan taqdirda, bozor konyunkturasi bo'yicha mas'ul shaxs bir tomonning ikkinchisiga zulm qilishiga yo'l qo'ymaslik uchun aralashadi, talab va taklif o'rtasida adolat nuqtai nazaridan baho berishga harakat qilinadi. O'z o'zidan jamiyatning ushbu voqea hodisalarida moliyaviy hisob zarur yordamchi vosita hisoblanadi. Bu esa islom buxgalteriyasining zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar / Manbalar / Reference:

Askary, S. (2006). *Accounting professionalism—a cultural perspective of developing countries. Managerial auditing journal*, 21(1), 102-111.

Aygül, E. (2024). *Stages of Accounting History in the Middle East. Muhasebe ve Finans Tarihi Araştırmaları Dergisi*, (26), 1-22.

Baydoun, N., Sulaiman, M., Willett, R. J., & Ibrahim, S. (2018). *Principles of Islamic Accounting*. John Wiley & Sons.

Chapra M. U. *Islam and the economic challenge*. – International Institute of Islamic Thought (IIIT), 1992. – №. 17.

Haniffa, R., & Hudaib, M. A. (2002). *A theoretical framework for the development of the Islamic perspective of accounting. Accounting, Commerce and Finance: The Islamic Perspective Journal*, 6(1/2), 1-71.

Hossain, M. M. (2012). *Financial Statements of banks under Islamic Shari'ah: Status of Regulatory Compliance'. Thoughts on Economics*, 22(1), 53-67.

Ibrahim, S. H. M., & Yaya, R. (2005). *The emerging issues on the objectives and the characteristics of Islamic accounting for Islamic business organizations. Management &*

Accounting Review (MAR), 4(1), 74-92.

Kader, H. (2021). Human well-being, morality and the economy: an Islamic perspective. *Islamic Economic Studies*, 28(2), 102-123.

Kimmel, P. D., Weygandt, J. J., & Kieso, D. E. (2020). *Financial accounting: tools for business decision making*. John Wiley & Sons.

Mahar, A. R., Bhatti, A., Ashraf, M. J., & Malik, A. Z. (2024). *Financial reporting for Islamic financial institutions: Accounting standards, interpretation and application*. Routledge.

Napier, C. (2009). Defining Islamic accounting: current issues, past roots. *Accounting history*, 14(1-2), 121-144.

Napier, C. J. (2023). Using accounting records as historical data sources. In *Handbook of Historical Methods for Management* (pp. 140-155). Edward Elgar Publishing.

Rahman, A. R. A. (2003). Ethics in accounting education: contribution of the Islamic principle of Maslahah. *International Journal of Economics, Management and Accounting*, 11(1).

Shahariman, A. A. B., Asari, N. A. M. B., Sulaiman, N. A. A. B., & Marzuki, N. A. A. B. (2024). *Islamic Principles And Their Application In Personal Financial Decision Making*.

Ullah, M. H. (2013). Compliance of AAOIFI guidelines in general presentation and disclosure in the financial statements of Islamic banks in Bangladesh. *International journal of social science research*, 1(2), 111-123.

Velayutham, S. (2014). "Conventional" accounting vs "Islamic" accounting: the debate revisited. *Journal of Islamic Accounting and Business Research*, 5(2), 126-141.

Xolmirzaev, U., Juraev, E., & Axmadjonova, M. (2021). The role of accounting in small business management. *Интернаука*, (21-5), 20-22.